

QISHLOQ XO‘JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASINI STATISTIK O‘RGANISH

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Raqamli iqtisodiyot va axborot texnologiyalari”
fakulteti “Statistika” ta’lim yo‘nalishi talabasi
Janabaeva Aqsungul Kuralbaevna
Ilmiy rahbar: **Hayitova Nigora**

Annotatsiya

Mazkur maqolada O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining iqtisodiyotdagi ahamiyati, eksport dinamikasining statistik tahlili hamda eksport hajmiga ta’sir qiluvchi omillar o‘rganilgan. Shuningdek, xorijiy davlatlar tajribasi asosida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari yoritilgan. Maqolada statistik usullar yordamida eksport hajmining o‘zgarish tendensiyalari tahlil qilinib, eksport salohiyatini oshirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: Qishloq xo‘jaligi, eksport, statistika, eksport dinamikasi, korrelyatsiya, regressiya, eksport salohiyati, diversifikatsiya.

Kirish

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligi O‘zbekiston iqtisodiyotining strategik tarmoqlaridan biri hisoblanadi. Ushbu soha aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini qondirish, sanoat korxonalarini xom ashyo bilan ta’minlash hamda eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Ayniqsa, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti mamlakatga valyuta tushumlarini olib kirish, xalqaro iqtisodiy aloqalarni kengaytirish va milliy iqtisodiyot barqarorligini ta’minlashda muhim omil hisoblanadi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Prezidentimiz tomonidan qabul qilingan farmon va qarorlar asosida eksportbop mahsulotlar yetishtirish, mahsulotlarni qayta ishlash

hamda tashqi bozorlarga chiqarish tizimi takomillashtirilmoqda. Bu esa mamlakat eksport salohiyatining oshishiga xizmat qilmoqda.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining iqtisodiy ahamiyati

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti mamlakat iqtisodiy rivojlanishining muhim ko‘rsatkichlaridan biri hisoblanadi. Eksport orqali davlat xalqaro bozorlarga chiqadi va o‘z mahsulotlarini xorijiy iste‘molchilarga taklif etadi. Natijada mamlakatga xorijiy valyuta kirib keladi va bu iqtisodiy rivojlanishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Qishloq xo‘jaligi eksportining asosiy afzalliklaridan biri yangi ish o‘rinlarini yaratishidir. Ayniqsa, qishloq hududlarida eksport faoliyatining rivojlanishi aholi bandligini oshirishga xizmat qiladi.

Eksportning rivojlanishi ishlab chiqaruvchilarni mahsulot sifatini oshirishga undaydi. Chunki xalqaro bozorlarda raqobat kuchli bo‘lib, yuqori sifatli mahsulotlarga muvaffaqiyat qozona oladi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini statistik o‘rganish usullari

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini tahlil qilishda turli statistik usullardan foydalaniladi. Ular eksport hajmi, eksport tarkibi, eksport ulushi va eksport dinamikasini aniqlash imkonini beradi.

Eksport hajmi ma‘lum bir davr davomida xorijga sotilgan mahsulotlarning umumiy qiymati yoki miqdorini ifodalovchi statistik ko‘rsatkichdir. Eksport tarkibi esa eksport qilinayotgan mahsulotlarning turlari bo‘yicha taqsimlanishini bildiradi.

Eksport dinamikasini o‘rganishda mutlaq o‘zgarish, o‘sish sur‘ati va qo‘shimcha o‘sish sur‘ati kabi ko‘rsatkichlardan foydalaniladi. Ushbu usullar eksport hajmining vaqt davomida qanday o‘zgarayotganini aniqlash imkonini beradi.

O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportining hozirgi holati

Bugungi kunda O‘zbekiston meva-sabzavot mahsulotlari eksporti bo‘yicha Markaziy Osiyoda yetakchi davlatlardan biri hisoblanadi. Mamlakatda uzum, gilos, o‘rik, poliz mahsulotlari, sabzavotlar va quritilgan mevalar eksporti jadal rivojlanmoqda.

Asosiy eksport yo‘nalishlari Rossiya, Qozog‘iston, Xitoy va Pokiston davlatlari hisoblanadi. So‘nggi yillarda yangi eksport bozorlari ham izlanmoqda.

Biroq ayrim muammolar ham mavjud. Jumladan mahsulotlarni saqlash tizimining yetarli rivojlanmaganligi, logistika xarajatlarining yuqoriligi hamda xalqaro standartlarga mos sertifikatlashtirish tizimining yetarli emasligi eksport salohiyatidan to‘liq foydalanishga to‘sqinlik qilmoqda.

Xorijiy tajriba va undan foydalanish imkoniyatlari

Niderlandiya, Braziliya va Peru davlatlari qishloq xo‘jaligi eksportini rivojlantirishda katta tajribaga ega davlatlar hisoblanadi.

Niderlandiya zamonaviy agroinnovatsiyalar va aqlli issiqxonalar orqali eksport hajmini oshirishga muvaffaq bo‘lgan. Braziliya ilmiy tadqiqotlar va GMO texnologiyalaridan samarali foydalanmoqda. Peru esa eksport diversifikatsiyasi orqali tashqi bozordagi xavflarni kamaytirishga erishgan.

O‘zbekiston uchun ham ushbu davlatlar tajribasidan foydalanish muhim ahamiyatga ega. Ayniqsa, logistika infratuzilmasini rivojlantirish, mahsulotlarni qayta ishlash hajmini oshirish va zamonaviy texnologiyalarni joriy etish muhim vazifa hisoblanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Eksportning rivojlanishi mamlakatga valyuta tushumlarini olib kiradi, yangi ish o‘rinlari yaratadi va iqtisodiy o‘sishni ta’minlaydi.

Kelgusida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksportini yanada rivojlantirish uchun zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, mahsulotlarni qayta ishlash hajmini oshirish, logistika tizimini rivojlantirish va eksport bozorlari geografiyasini kengaytirish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

II. Monografiya, ilmiy maqola, patent, ilmiy to‘plamlar

1. Soatov N.M., Nabiyeu N.G‘., Ayubjonov A.H. - “Amaliy statistika”. Darslik. Toshkent, 2020. 593 bet.
2. Shodiyev X., Xabibullayev I., Utanov B.Q. “Statistika bo‘yicha praktikum: o‘quv qo‘llanma”. Toshkent: “IQTISOD-MOLIYA”, 2021. 336 bet.
3. Yosh olimlar ilmiy-amaliy konferensiyasi, Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eksport qilishda logistika, saqlash va ekologik talablar maqolasi, Tog‘oyev A.A. tomonidan yozilgan.
4. Минаков И.А. и др. Экономика сельского хозяйства. 2009-йil. 14-бет.